

ISLOMIY SUG`URTA -TAKAFUL

Ziyayev Jamshidbek Xurshidbek o`g`li

*Toshkent moliya instituti “Soliqlar va sug`urta” fakulteti talabasi*

Islom sug`urtani turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan takaful, vaqf, o`zaro yordam jamg`armalari va o`zaro sug`urta ko`rinishida. Misol uchun, “takaful” arabcha so`z bo`lib “o`zaro kafolatlash” ma`nosini bildiradi va O`zbekiston qonunchiligida ko`zda tutilgan, fuqaro va tashkilotlar tomonidan muayyan pul mablag`larini birlashtirish yo`li bilan, amalga oshirilishi mumkin bo`lgan ikki tomonlama sug`urtaga mos keladi. Ushbu sug`urta turi ayrim mamlakatlarda vaqf ko`rinishida ham qo`llanib kelinmoqda. Bundan, moliyaviy mahsulot yoki tizimning nafaqat nomiga balki uning shakli va tamoyillariga ham e`tibor qaratish muhimligini anglashimiz mumkin.

Takaful to`g`ri amalga oshirilishi uchun maxsus sug`urta jamg`armasi tuziladi. Jamg`arma a`zolari oldindan e`lon qilingan tartib-qoidaga ko`ra sug`urta uchun badallarni ehson sifatida jamg`armaga kiritishadi, jamg`arma esa o`z mulkiga aylangan ushbu mablag`lar hisobidan a`zolarining kelishilgan zararlarini qoplab turadi. Yil yakunida sug`urtadan ortgan mablag`larning bir qismi jamiyat nizomidagi tartib-qoidalar asosida keyingi yillar zaxirasiga olib qo`yilishi yoki a`zolar o`rtasida taqsimlanishi, vaqf shaklida tuzilgan jamg`armaning qoldig`idan esa muhtojlarga moddiy yordam ham ko`rsatilishi mumkin. Takaful sug`urtasi qonuniy qoidalarga muvofiq ishtirok etish sug`urtasi deb ta`riflanadi. Ishtirok etishni sug`urtalashda qonunda nazarda tutilgan biznes turlari bo`yicha tashkil etilgan sug`urta kompaniyalari ishtirok etish tamoyillariga binoan sug`urta qildiradigan va o`zlarining sug`urta faoliyatida ushbu tizim tamoyillariga muvofiq harakat qiladigan odamlarni sug`urtalashni ta`minlaydi. Halol sug`urta tizimi yoki Takaful sug`urta tizimi ko`p yillar davomida islom e`tiqodi ustun bo`lgan mamlakatlarda qo`llanilgan. Zamonaviy ma`noda, bu haqida yigirmanchi asrda an`anaviy sug`urtaga alternativa sifatida gapira boshladilar. Bugungi ma`noda birinchi halol sug`urta kompaniyalari 1979 yilda Birlashgan Arab Amirliklari va Sudanda tashkil etilgan. Keyinchalik, ushbu kompaniyalar Malayziya va Saudiya Arabistonida tashkil etilgan. Bugungi kunda musulmon bo`lmagan mamlakatlarda halol sug`urta yoki takaful sug`urtasi amalga oshiriladi. o`tkaziladi.



ISLOMIY SUG'URTADA	AN'NAVIY SUG'URTADA
O'zaro hamjihatlik halol sug'urtasida juda muhimdir.	An'anaviy sug'urta faqat tijorat elementlariga asoslanadi.
Halol sug'urtasida qiziqish, qimor o'ynash va noaniqlik yo'q	An'anaviy sug'urta qiziqish, qimor o'yinlari va shubhalarni o'z ichiga oladi.
Uning ishtirokchilari tomonidan halol sug'urtasida to'lanadigan mukofotlar boshqa ishtirokchilarni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlardan himoya qilish uchun fondga saqlanadi	An'anaviy sug'urta kompaniyalariga to'lanadigan mukofotlar, ularga mumkin bo'lgan xatarlar evaziga tegishli
Halol sug'urta kompaniyalari ham qonunlar, ham Islom qoidalari bilan bog'langan	An'anaviy sug'urta kompaniyalari faqat amaldagi qonunlarga bog'liqdir
Halol sug'urta tizimida ishtirokchilar tomonidan yaratilgan fond va aktsiyadorlar tomonidan yaratilgan fond alohida saqlanadi	An'anaviy sug'urtada to'lanadigan mukofotlar kompaniyaning daromadi hisoblanadi va davr oxirida aktsiyadorlarga to'lanadi

Halol sug'urtasida davr oxirida olingan ortiqcha faqat ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi	An'anaviy sug'urtada barcha ortiqcha va foyda aktsiyadorlarga to'lanadi
Agar ishtirokchi halol sug'urtasida muddat oxirida kamomadga ega bo'lsa, fond boshqaruvi ishtirokchiga foizsiz kredit beradi	An'anaviy sug'urta etishmovchiligi bo'lgan taqdirda, sug'urta kompaniyasi tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi
Halol sug'urtasida ham ishtirokchilar, ham aksiyadorlarning jamg'armalari Islom asoslariga muvofiq investitsiyalarga yo'naltirilgan	An'anaviy sug'urtada bunday majburiyat yo'q.
Halol sug'urtadagi takaful kompaniyalari o'zlarining qayta sug'urta tizimiga va ReTakaful kompaniyalariga ega bo'lib, ular ham islom tamoyillari asosida ishlaydi	An'anaviy sug'urtada qayta sug'urta kompaniyalari islom tamoyillari asosida ishlashga majbur emaslar.

Halol sug'urta tizimida an'anaviy sug'urta kompaniyalari tomonidan sotiladigan barcha turdagi sug'urta turlari mavjud, masalan, transport vositalarini sug'urtalash, transport vositalarini majburiy sug'urta qilish, yong'in, TCIP, shaxsiy baxtsiz hodisalar, muhandislik va boshqalar.

Bu erda muhim jihat shundaki, garchi an'anaviy sug'urta va halol sug'urta sug'urta tizimining faoliyati jihatidan har xil bo'lsa ham, barcha mahsulotlar bir xil huquqiy tartibga solinadi. Sug'urta kompaniyalari tomonidan taqdim etilayotgan barcha mahsulotlar uchun



bandlar tegishli qonunlarda tushuntirilgan va ushbu bandlar qoidalarga kiritiladi. Shuning uchun an'anaviy sug'urta kompaniyalari va halol sug'urta kompaniyalari tomonidan chiqarilgan siyosatlar xizmat ko'rsatish va tarkib jihatidan bir xil.

Shuningdek, narx jihatidan halol sug'urta kompaniyalari boshqa sug'urta kompaniyalari bilan bir xil bozorda ishlaydi va bir xil raqobat sharoitida bo'ladi.

Halol sug'urta kompaniyalari qatoriga kiruvchi shariat maslahat kengashi ham kafolatlangan aktivlar Islom tamoyillariga mos keladimi-yo'qligini ko'rib chiqadi. Shu sababli, islomiy nuqtai nazardan, tamaki omborlari, alkogolli ichimliklar va sigareta sotuvchilar, odobsiz noshirlar, foizli bank filiallari va shu kabi muassasalar kabi mol-mulk sug'urta qilinmaydi.

Takaful sug'urtasi qonuniy qoidalarga muvofiq ishtirok etish sug'urtasi deb ta'riflanadi. Ishtirok etishni sug'urtalashda qonunda nazarda tutilgan biznes turlari bo'yicha tashkil etilgan sug'urta kompaniyalari ishtirok etish tamoyillariga binoan sug'urta qildiradigan va o'zlarining sug'urta faoliyatida ushbu tizim tamoyillariga muvofiq harakat qiladigan odamlarni sug'urtalashni ta'minlaydi.

halol sug'urta tizimi yoki Takaful sug'urta tizimi ko'p yillar davomida islom e'tiqodi ustun bo'lgan mamlakatlarda qo'llanilgan. Zamonaviy ma'noda, bu haqida yigirmanchi asrda an'anaviy sug'urtaga alternativa sifatida gapira boshladilar. Bugungi ma'noda birinchi halol sug'urta kompaniyalari 1979 yilda Birlashgan Arab Amirliklari va Sudanda tashkil etilgan. Keyinchalik, ushbu kompaniyalar Malayziya va Saudiya Arabistonida tashkil etilgan. Bugungi kunda musulmon bo'lmagan mamlakatlarda halol sug'urta yoki takaful sug'urtasi Bu amalga oshiriladi.

Takaful kompaniyalari uchun eng muhim talablardan biri shirkat maslahat kengashining kompaniyaning mutaxassislaridan iborat bo'lishidir. Agar bunday qo'mita bo'lmasa, kompaniyani takaful kompaniyasi deb atash mumkin emas. Ushbu kengash a'zolari islom ilmlari bo'yicha mutaxassislardir. Kompaniya tomonidan tuzilgan barcha shartnomalar, tayyorlangan siyosatlar, sug'urta qilingan mol-mulk ushbu kengash tomonidan har doim tekshiriladi va Islomga tegishli bo'lmagan har qanday muammolar haqida xabar beriladi.

Halol sug'urta tizimida ishtirokchilar tomonidan to'lanadigan pullar hovuzda to'planadi va zarar uchun to'lovlar ushbu hovuzdan amalga oshiriladi. Ushbu tejamkorlik Shariat maslahat kengashi tomonidan tasdiqlangan investitsiya sohalarida qo'llaniladi va foyda ushbu pulga o'tkaziladi.

Jamg'arma boshqaruvi odatda tijorat tashkilotiga topshiriladi. Bunda boshqaruvchi tashkilot jamg'armaga egalik qilmaydi, balki jamg'arma faoliyatini vakil sifatida boshqaradi va o'zining hizmatlari evaziga jamg'armadan haq olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda, boshqaruvchi tashkilot va jamg'arma a'zolari o'rtasida manfaatlar qarama-qarshiligi yuzaga kelmaydi, chunki jamg'arma hisobidan zararlarni to'lamaslikdan boshqaruvchi tashkilot hech qanaqasiga manfaatdor bo'lmaydi. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozim: jamg'armaning tovon to'lovidan ortgan qismi jamg'arma va uning a'zolari ixtiyorida qoldiriladi, ya'ni boshqaruvchi tashkilot tasarrufiga o'tkazilmaydi.



Ba’zida ko’rilgan zarar taxmin qilingan ko’rsatkichlardan yuqori bo’lib qolishi va shu sababli jamg’arilgan badallar zararlarni qoplashga yetmay qolishi mumkin. Shunday paytlarda tovon to’lovi uchun kerak bo’lgan mablag’ jamg’armaning boshqaruvchi tashkilotidan qarz yoki boshqa o’zaro sug’urta jamiyatlaridan (avvalroq tuzilgan kelishuv asosida) yordam sifatida olinadi.

Olingan qarzlar keyingi yillardagi sug’urta to’lovlaridan ortgan zaxira hisobidan qaytariladi. Agar boshqa jamg’armalardan, ularga oldindan badal o’tkazib turish hisobiga, yordam puli olingan bo’lsa, ushbu yordam puli qaytarilmaydi.

Yuqorida sizlarning e’tiboringizga havola qilingan ma’lumot, yaqindan beri O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan “UZARO” o’zaro sug’urta jamiyatining telegram sahifasida berilgan ma’lumotlar asosida tayyorlandi.

Sug’urta arabchada ta’min, deyiladi. Bu yangi arabiy istiloh bo’lib, uning inglizcha istilohdagi muqobili Insurance ya’ni, omonlikni ro’yobga chiqarishdir. Sekurity ajnabiy kalimasi ba’zi umumiy arab lahjalariga sukurta bo’lib kirib qolgan. (Ushbu kalimani buzib talaffuz qilish bilan bizning diyorlarga kelganda sug’urta deb ishlatila boshlangan). Ba’zi kitoblarning sarlavhalarida yoki ta’minga tegishli fatvolarda bugungi kunimizda ham sukurta kalimasi uchrab turadi.

Ta’min ya’ni sug’urta mol ehtimoliy talofatga uchrasa uni to’lab berish evaziga ma’lum mablag’ yoki xizmat yoki boshqa bir moliyaviy to’lov to’lashni zimmasiga olib, sug’urta qildiruvchidan pul olib tuziladigan shartnomadir. Agar mol talofatga uchrasa, ushbu olgan bo’lakni muqobilida to’lanadi.

Ilmiy ibora bilan boshqacha qilib aytganda, ta’min jamoaviy reja bo’lib ta’kidi yo’q o’ringa ta’kidni qo’yishdir. Bunda xatarlar jamlanib ularni bir-biriga yeyishtirish chegaralash qonunlariga mutobiq holda bo’ladi.

Xayriya sug’urtasi: Buning timsoli zakot, sadaqotlar, yaqinlarga nafaqa berish, diyalarni to’lash, vasiyatlar, vaqflar, kaffarotlar va nazrlar kabi nizomlarda ko’rinadi.

Buning maqsadi faqirlarni faqirlikdan chiqarishdir. Musibatga uchragan kishini ehtiyojini qondirish bilan xayriya sug’urtasi o’z ishini yakunlaydi. Lekin o’zaro yordam yoki tijoriy sug’urtalarda esa halokatga uchragan boylikni avvalgi saviyasiga ko’tarish maqsadi oldinga qo’yiladi.

Xayriya sug’urtasi degan so’zni sug’urta ta’rifi orasiga qo’shish aslida to’g’ri emas. Chunki, bunda a’zolik badali, ishtirokchilar shartnomasi ya’ni ta’min evaziga muqobil turadigan hech narsa yo’q. Shundan kelib chiqib ba’zi fuqaholar, bizning islom shariatimizda o’zaro yordam yoki tijoriy sug’urtalar kabi kelgindi sug’urtalarning keragi yo’q, shariatimiz talofatga uchragan, qarzga botib qolgan kabi holatlarga azaldan xayriya ishlarini joriy qilgan, deyishadi.

Ijtimoiy sug’urtada ishchi ushbu sug’urta uchun a’zolik badali to’lab boradi. Bu badal sug’urtaning bir bo’lagidir. Ish beruvchi to’layotgan mablag’ esa hech qanday hukmni o’zgartirmaydi, balki bu aynan ishchining o’z mablag’idir. Chunki, ishchi uni haq sifatida emas, balki nasiya, qo’shimcha oylik sifatida oladi. Ijtimoiy sug’urtada ham sug’urta uchun ehtimoliy mablag’ bo’ladi. Bu mablag’ ko’payib kamayib turadi. Xususan sug’urtaning ba’zi



turlarida shunday. Ishsizlik yoki jarohat olganlik sug'urtasida ishchi umri davomida sug'urta badalini to'lab berish, va umri mobaynida ishsiz qolmasligi yoki jarohat olmasligi mumkin. Demak ijtimoiy sug'urta bilan yakka shaxslar sug'urtasida o'rtasida nima farq bor? Ikkisida ham noaniqlik barobar emasmi? Shunday ekan biriga ruxsat berib, ikkisiga ruxsat bermaslik qanday bo'ladi?

#### **O'ZARO ALMASHUV VA O'ZARO YORDAM SUG'URTASI;**

O'zaro almashuv sug'urtasini kichkina hay'at yurgizadi. Uning sarmoyasi bo'lmaydi. Agar a'zolaridan biriga zarar yetsa, hay'at a'zolaridan ma'lum miqdordagi mablag'ni to'playdi.

Bu sug'urta turining yaxshi tomoni, bunda aldov va hiyla bilan zarardan boshqa jihatga mablag'ni ishlatib yuborish bo'lmaydi. Chunki, a'zolar barchasi bir-birlarini yaxshi taniydi. Lekin bu turdagi sug'urtaning aybi shuki, bunda har bir a'zo qancha badal to'lashini yoki qachon ishtirok etishini oldindan bilmaydi. Buning mas'uliyati chegaralanmagan bo'ladi. Ko'pincha a'zolar adadi "Ko'p sonlik" qonunga to'g'ri kelmaydi. "Law of large Numbers". Uni qoyim qilish oson bo'lib, ko'pchilik qonuniga kirmaydi. Bunda ma'lum a'zolik badali asosida ish yuritmay, balki o'zgarib turadigan ishtirokchilik badali asosida ish olib boriladi. (Agar zarar ko'p bo'lsa ko'p, kam bo'lsa kam badal beriladi).

Ba'zi kotiblar o'zaro almashuv sug'urtasi bilan o'zaro yordam sug'urtasi orasida farq bor deyдилar. Lekin chuqurroq nazar solinsa bu farqni sezish qiyin. O'zaro yordam sug'urtasi yordamlashish falsafasi asosiga quriladi. Unga a'zo bo'lish eshigi doim ochiqdir. Har bir a'zo to'lagan badalining miqdoridan qat'iy nazar bir xil ovozga ega bo'ladi. Agar mablag' oshib qolsa, uni a'zolariga bo'lib berish ham mumkin yoki ommaning manfaati yoki xayriyalar uchun sarflashga olib qo'yish ham mumkin. Ba'zi hay'atlar o'zaro almashuv va o'zaro yordam sug'urtalari uchun oldindan mablag' yig'ib qo'yishni ham yo'lga qo'yganlar. Bunda agar zarar vujudga kelsa, uning o'rnini qoplashga kechiktirilmaydi. Bunday mablag'ni birdan olib qo'yish yoki tijoriy sug'urtagidek oylik hisobida yig'ib borish ham mumkin.

Tijoriy sug'urta: Tijoriy sug'urtani biror muassasa yoki tijoriy shirkat yo'lga qo'yadi. Uning asosiy maqsadi foyda olishdir. Bu tashkilot sug'urta qildiruvchilardan ma'lum miqdorda a'zolik badali yig'ib oladi va ushbu mablag' bilan ehtimoliy hodisalar uchun sarf xarajatlarni amalga oshirib, undan ortganini o'z foydasiga oladi.

Tijoriy sug'urtaga xatarni ma'lum evaz hisobiga ko'chirib berish deb qarash mumkin. Shuning uchun, ba'zi fuqaholar bu turdagi sug'urtaga ijozat bermaganlar. Chunki, unda xatarni o'zgartirish yoki boshqa tomonga ko'chirish uchun evaz e'tiborga olinadi. Ushbu fuqaholar o'zaro yordam sug'urtasiga ruxsat berganlar. Chunki, bunda xatarni ko'tarish yoki tarqatib yuborish uchun o'zaro yordam e'tiborga olinadi.

Hukmi: Shu o'rinda fuqaholar va ishtirokchilar: "Biz avvaldan joriy bo'lib kelayotgan islomiy merosimiz bilan kifoyalansak bo'ladi, boshqa tijoriy yoki o'zaro yordam sug'urtalari kabi kelgindi tushunchalarga ehtiyojimiz yo'q. Chunki bu ikki turdagi sug'urtalarda noaniqlik, aldov, qimor, ribo, ko'z bo'yash va kishilar molini botil yo'l bilan yeyish bor. Shuning uchun, bularga shar'iy jihatdan ruxsat berib bo'lmaydi", deyдилar.



Xulosa: Sugʻurta har bir inson oʻzini va mol-mulkini turli baxtsiz hodisalardan kafolatlash uchun juda ham kerak. Ayniqsa u islomiy sugʻurta boʻlsa nur ustiga aʼlo nur boʻladi. Shunday qilib, takaful anʼanaviy sugʻurtaning islomiy alternatividir. Takafulning asosiy tushunchalari maqbul sharʼiy modellarga asoslangan taʼvvun (hamkorlik), tabarru (xayr-ehsonlar) va kooperativ risklarni oʻz ichiga oladi. Takaful bilan shugʻullanish uchun Shariʼah tomonidan tasdiqlangan innovatsion modellar va tuzilmalarga mudaraba modeli, vaqala modeli, dastlabki ikkita modelni birlashtirgan gibrid modeli va vaqf-vaqala-mudaraba modeli kiradi. Modellar ishtirokchilarning investitsiya fondlari va ishtirokchilarning risk fondlarini boshqarish uchun standart formulalarni oʻz ichiga oladi. Takaful sanoati jahon sugʻurta sanoatiga oʻz hissasini qoʻshishda davom etish uchun oʻsish va bozorga yanada kirib borish uchun muhim salohiyatga ega. U paydo boʻlishidan boshlab, u yildan-yilga doimiy ravishda oʻsib bormoqda va dunyo boʻylab yangi mahsulotlar va xizmatlarni taklif etmoqda. Shu sababli ham mamlakatimizga sugʻurtaning islomiy koʻrinishini joriy qilish va tadbiq qilish Oʻzbekiston sugʻurta tizimi uchun juda muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil qilganligi uchun ham bu tizimni joriy qilish koʻzlangan natijalarni olib keladi.

